ILMIY TADQIQOTLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI
nomli ko'p tarmoqli masofaviy,onlayn respublika konferensiyasi

Sayt havolasi:https://e-conference.uz/index.php/itjm Oktabr,2026

YOSHLARDA HUQUQIY TARBIYA VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDAGI ASOSIY YONDASHUVLAR

Barkasheva Odinaxon
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarda huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatni shakllantirishning asosiy yondashuvlari, huquqiy ong va huquqiy savodxonlikning o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Maqolaning maqsadi yoshlarning qonunlarga hurmatini, o'z huquq va majburiyatlarini anglashini rivojlantirishda huquqiy ta'limning o'rni hamda samarali tarbiyaviy usullarni ochib berishdan iborat. O'zbekistonda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar, ta'lim muassasalarining vazifalari, shuningdek, Germaniya va AQSh tajribasining ayrim jihatlari ko'rib chiqiladi. Huquqiy tarbiyani yosh va individual psixologik xususiyatlarga mos tashkil etish, interfaol metodlar, hayotiy vaziyatlar, sahna ko'rinishlari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalalariga e'tibor qaratiladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikning ta'lim jarayonidagi ahamiyati qayd etiladi. Huquqiy bilimlarni kundalik xulq-atvorga singdirish yoshlarning mas'uliyatini oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qilishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: yoshlar, huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy savodxonlik, huquqiy ta'lim, interfaol metodlar, huquqbuzarliklar profilaktikasi, xorijiy tajriba.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishganligidan so'ng o'z oldiga qo'yilgan eng ustuvor vazifalar qilib jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, manaviy-ma'rifiy, siyosiy va shuningdek huquqiy jihatdan rivojlantirish deb belgilangan edi. Davlatimiz siyosatida demokratik-huquqiy va adolat hukmronlik qiluvchi davlat qurish muhim. Aynan shunday buyuk maqsadlarni amalga oshirishda esa bevosita mamlakatda qonun ustuvorligini so'zsiz ta'minlash, shuningdek qonun buzilishiga nisbatan odamlarda murosasizlik hissini shakllantirish, qolaversa, huquqning bir tizmdagi to'la hukmronligiga erishish orqaligina ta'minlanadi.

Inson ijtimoiy hayot davomida axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya qilib yashaydi. Jamiyatni boshqarishda bu me'yorlarning tutgan o'rni katta. Har bir kishi o'z harakatlari orqali boshqalarning huquq va manfaatlariga putur yetkazmasligi lozim.. Aynan huquq normalarini amalga oshirishda huquqiy buyruq, hamma vaqt, shaxsning ongiga murojaat qiladi, chunki inson ongli ravishda faoliyat ko'rsatadi va malumot qabul qiladi. Inson ongi shu qadar murakkab faoliyatga egaki undagi mexanizmni tushunishning o'zi murakkab bir ishdir. Shuningdek inson ongi biror bir ma'lumotni qabul qilishi, uni baholashi, tushunishi, o'zida qaytadan ishlab chiqishi va o'ziga saqlab qolishi murakkab jarayondir. Huquqiy ongni ham shu holatni inobatga olgan holatda shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Avvalo malumotni inson ongiga to'g'ri yetkazib berishni taminlash, uni tushunib yetishi uchun ongga ta'sir o'tkazish va boshqa baholash, jarayon, qayta ishlash kabi funksiyalarini hosil qilishi uchun shaxsga yo'nalish ko'rsatish muhimdir. Shu va boshqa hodisalar natijasida insonning huquqiy ongi rivojlanib borganligi natijasida unda huquqiy madaniyat ham shakllanib boradi va u kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanadi. O'zining hatti-harakati davomida huquq normalariga amal qilishga odatlanadi. Qonun-qoidalarga amal qilishida atrofidagilarga ham ta'sir ko'rsatadi. Nafaqat qarashlari, fikrlari bilan balki, oddiy me'yoriy normalarni o'zida mujassamlashtirgan holda huquqqa nisbatan hurat ruxini boshqalarga ham ko'rsatib beradi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

O‘zbekiston demokratik islohotlarni amalga oshirish va fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lida davom etmoqda. Islohotlar zamirida avvalo inson manfaatlari yotadi, insonning hamma narsadan ko‘ra muhim ekanligi va unu shaxs sifatida qadrlash, uning manfaatlarini lozim darajada taminlab berish, jamiyatda munosib turmush kechirish uchun adolatli shart-sharoitlarni taminlab berishni davlat o‘z zimmasida burch deb biladi va bu vazifalarni amalga oshirish xususida ko‘plab davlat organlari xalqimizga xizmat qilib kelmoqda. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiyani kundalik hayotda qo‘llanishli holga keltirish uchun qilinayotgan say-harakatlarni yanada yaxshilash va bardavom ettirish galdagi vazifalardan biridir. Chunki mamlakatnng huquqiy jihatdan mustahmak ekanligi, qonunlarni amalyotda ishlashi bevosita unda yashovchi shaxslarning huquqiy ongi va madaniyatiga bog‘liq. Axoli qay darajada huquqiy savodxon bo‘lsa va qonunlarni tushunib ularga amal qilsa mamlakatda tartib shu darajada mustahkam bo‘ladi .Bu borada 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”[1] qabul qilindi. Qonundagi normalarda axolining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish, huquqiy tarbiay bilan bog‘liq ishlarni keng yo‘lga qo‘yish, yuridik sohaga oid bo‘lgan darsliklar, adabiyotlar, qo‘llanmalar va sohani tushuntirishga xizmat qiluvchi maqolalar sonini yanada oshirish hamda sifatini yaxshilash kabilar bayon etib qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida” [2]gi PF-5618-sonli farmoni ham qabul qilingan.

Huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy tarbiya – fuqarolarga huquqiy bilimni singdiruvchi muhim ijtimoiy faoliyatdir. Tarbiyaning o‘z sohalari mavjud. Tarbiyaning o‘zi turli qismlarga bo‘linishi ham shaxs ongi bilan bog‘liq hodisadir. Inson ongi nima yovnaltirilganiga qarab turli qismlarga bo‘linadi, aytishimiz mumkunki estetik, axloqiy, badiiy, diniy va yana huquqiy kabilarni. Inson qabul qilgan ma’lumotiga asosan ongida mushohada jarayonidn so‘ng o‘z harakatlariga malumotni ko‘chirsa u tarbiyani qabul qilgan hisoblanadi. Huquqiy tarbiyani amalga oshirishda tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi o’rtasida muloqot amlaga oshiriladi.

Jamiyatda, xususan yoshlarda huquqiy tarbiyani shakllantirish borasida avvalo tarbiyalanuvchining yoshi, shaxsiy xususiyatlari, uning axloqiga e’tibor qaratish zarur. Misol tariqasida 12-13 yoshli maktab o‘quvchisi firibgarlik, tovlamachilik kabi huquqbuzarliklarni bilmaydi va uning ongi bularni tushunishga hamda qabul qilishga qiynaladi yoki, davlat boshqaruvining karparativ ko’rinishi haqidagi ma’lumot ham unga qiziq emas. 20-25 yosh orasidagi yoshlarga esa odam o‘ldirish, o‘g‘rilik, boshqa shaxslarning huquqlari toptalishi kabi mavzular juda oddiydek ko‘rinadi. Bularni e’tiborga olgan holda darslarni tashkillashtirish va mavzularni bo‘lish o‘quvchining ongining qabul qilish va tushuna olish qobiliyati va psixologik xususiyatida kelib chiqib ta’lim muasassalarida tashkil etiladi.

Yoshlarning huquqiy savodxonligini rivojlantirishda ta’lim muassasalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bilamizki, maktablarda 8-9-10- va 11- sinflarda huquq darslari o‘tilishi yo‘lga qo‘yilgan. Lekin maktabda ushu darslarni tashkil etishda sustkashlikka yo‘l qo‘yilmoqda. O‘quvchilarni darsga jalb qilishda yangi zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish zarur. Huquq bu malum bir vaziyat yoki davr uchungina kerakli ijtimoiy hodisa emasligi va u bilan biz hayotimiz davomida

[1] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” 466-I-son. 29.08.1997. www.Lex.uz

[2] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida”gi PF-5618-son, 09.01.2019. www.Lex.uz

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yashashimizni tushunishimiz va buni tarbiyalanuvchilarimizga ham yaxshi tushuntirib bera olishimiz zarur. Darslarni tashkil etishda zamonaviy texnalogiyalarni qo'llash, mavzuni yoritishda hayotiy misollardan foydalanish, ko'rgazmali qurollarni qo'llash va shu bilan bir qatorda huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari hodimlarini ham darslarga jalb qilish, ulardan davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan munosabatni o'rganishimiz zarur. Huquq darslarida mavzuga oid sahna ko'rinishlarnini tashkilllashtirish, har bir oddiy holatga nisbatan ham qonunda qanday normalar avjud ekanligini izlab topish va unga sharx berish mavzuni o'zlashtirishda va huquqiy bilmlarni oshirishda yaxshi samara beradi. Huquq darslarini yanada qiziqarliroq olib borishda bugungi kunning dolzarb mavzusi bilan bog'lash ham yaxshi natija beradi. Bu borada yurtimizda chop etilayotgan azeta, jurnallar, internet sahifalardagi tarixiy, huquqiy, siyosiy maqolalardan, qabul qiligan qonunlar va qonun osti hujjatlaridan keng foydalanish zarur. Shu zaylda tashkil etilgan darslar o'quvchi faolligi va erkinligiga qaratiladi, ularning mustaqil fikr yuritishiga imkoniyat yaratadi. Bu bir huquqiy tarbiya jarayonini tashkillashtirish usuli edi.

Huquqiy tarbiya sohasidagi Germaniya tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu mamlakatda bu masalaga maktabgacha ta'lim muassasalaridanoq jiddiy e'tibor qaratiladi. Shu boisdan ham Yevropadagi ilk maktabgacha ta'lim muassasalari aynan Germaniya davlatida 1840-yildayoq tashkil etilgan. Odatda maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarda aqliy rivojlanish, o'z fikrini aniq ifodalash qobiliyatlarini shakllantirish bilan bir qatorda bolalarning ijtimoiylashuvi uchun zamin yaratuvchi maskan sifatida qaraladi. Biroq, Germaniyada bolalar garchand so'zlash, o'z fikrini ifodalash qobiliyatiga ega bo'lmasligi mumkin, ammo o'zining huquqlarini mukammal darajada anglay oladi. Bundan kelib chiqadiki, mamlakatda huquqiy tarbiya masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan tarbiyaviy faoliyat nemis klassik tarbiyasining muhim omilidir. Hali unchalik ko'pnarsaga aqli yetmaydigan 3 yoshli nemis farzandi bolalikdan harfni tanimasa-da, ona yoki otasining uni urishish yoki qaysidir xatosi oqibatida uni jazolashga haqqi yo'qligini yaxshi biladi.[3] Bu esa germaniyada bolalarga yoshligidanoq huquqiy tarbiyaning berilganligidan dalolatdir.

Bu borada rivojlangan davlatlardan biri hisoblangan AQSh da ham tajribalar mavjud. Huquqiy tarbiyaga oid AQSH tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, AQSH ning Virjiniya shtatida voyaga yetmaganlar va o'smirlar bilan ishlash hamda ular jinoyatchiligining oldini olish masalasiga politsiya departamenti tomonidan alohida e'tibor qaratiladi. Yosh avlodning tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni uchta maxsus ishlab chiqilgan dasturlardan ham bilib olish mumkin. Ularning birinchisi: o'quv kursi bo'lib, bu boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Ushbu o'quv kursi davomida tarbiyalanuvchilar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifalari, fuqarolarning huquq bilan bir qatorda majburiyatlari, shuningdek jamoaviy hamda individual xavfsizlikni ta'minlash choralari bilan tanishadilar. 4-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan kurs quyidagi mavzular: qonun va jinoyatchilik, aholining xavfsizligi, o'g'rilik, vandalizm va shaxsiy xavfsizlik kabilar mavjud.

Amaliy islohotlar eng avvalo yangi O'zbekiston yoshlarini rivojlantirishga xizmat etadi va sog'lom dunyoqarashini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Islohotlar davomida yoshlarda yangi qiziqishlar, imkoniyatlar yuzaga keladi. Yangi ijtimoiy munosabatlarning paydo bo'lishi esa davlat zimmasiga katta masuliyat yuklaydi. Bu yo'lda tarbiyaga tayanishimiz, sog'lom etiqodni shakllantirishimiz zarur. Ushbu ilmiy ishni o'rganish jarayonida yoshlar tomonidan

[3] Дошкольное образование в Германии. http://www.doshkolenok.com/vospitanie_i_razvitie_rebenka/63- doshklonoe-obrazovanie-v-germanii.html.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

huquqbuzarliklar sodir etilishining mavjud holatlari, ularni yuzaga keltiruvchi omillar, huquqbuzarliklar profilaktikasi, bu boradagi huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatning o'rni keng qamrovda tahlil qilindi hamda chuqur o'rganildi. Shuningdek, huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan bir qator takliflar ishlab chiqildi. Ishonch bilan aytish mumkinki, yoshlar orasida huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish orqali ularning huquqbuzarlik sodir etish holatlari sezilarli darajada kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" Toshkent-2023. 35-b "Yoshlar-2020:Global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari" mavzusidagi inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumi ishtirokchilariga" 12.08.2020
3. "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi PF-1791-sonli 25.06.1997.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori, "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" 466-I-son. 29.08.1997.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son, 09.01.2019.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.